

"Mening Konstitutsiyam va davlat tilim" mavzusida ommaviy diktant o'tkazildi

// 05.12.2024

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/mening-konstitutsiyam-va-davlat-tilim-mavzusida-ommaviy-dikt>



Bu yil mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayrami "Konstitutsiya - erkin va farovon hayot garovi!" degan bosh g'oya asosida keng nishonlanmoqda.

Mamlakatimiz Prezidentining 2024-yil 17-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida" farmoyishi bilan tasdiqlangan dastur asosida "O'zkiyosanoat" AJ va uning tarmoq korxonlarida tashkiliy-amaliy, ma'naviy-madaniy, ma'rifiy-huquqiy tadbirlar o'tkazilmoqda.



Xususan, "O'zkimyo sanoat" AJ xodimlari uchun Jamiyat Yuridik boshqarmasi tomonidan Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati, uning islohotlarga mustahkam huquqiy poydevor bo'lib xizmat qilayotgani va uning qoidalarini hayotimizda aks ettirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar borasida ma'lumotlar berib o'tildi.



Shuningdek, xodimlar o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 32 yilligi munosabati bilan "Mening Konstitutsiyam va davlat tilim" mavzusida ommaviy diktant o'tkazildi.

Tadbir so'ngida Konstitutsiyamizning jamiyat farovonligi uchun xizmat qilishi, inson huquqlari davlat tomonidan kafolatlanishi yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilib, xodimlarni qiziqtirgan savollariga javob berildi.





"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati